



**MEDIATIV KELISHUVNING IJROSINI TA'MINLASHDA YUZAGA
KELAYOTGAN HUQUQIY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF
ETISHGA QARATILGAN INSTITUTIONAL MECHANISMLAR**

Ungarov Akram Botirkul o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti
Mediatsiya va nizolarni muqobil hal qilish usullari yo'nalishi talabasi,
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya:

Mazkur tezisdagi mediativ kelishuv ijrosini ta'minlash jarayonida yuzaga kelayotgan huquqiy muammolar atroflicha tahlil qilingan. Xususan, kelishuvni majburiy ijroga yo'naltirishdagi to'siqlar, mediatsiya shartnomasining huquqiy kuchi, sud va ijro organlarining vakolatlari va ularning amaliyotdagi muammolari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, bu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan milliy va xorijiy institutlar tajribasi o'rganilgan hamda O'zbekiston uchun mos institutsional mexanizmlarni taklif qilishga urinish qilingan.

Kalit so'zlar: Mediatsiya, mediativ kelishuv, huquqiy muammolar, ijro, institutsional mexanizmlar, sud, ijro byurosi.

**LEGAL ISSUES ARISING IN THE ENFORCEMENT OF MEDIATED
SETTLEMENTS AND INSTITUTIONAL MECHANISMS AIMED AT
THEIR RESOLUTION**

Ungarov Akram Botirkul o'g'li

Student of the Faculty of Postgraduate and Part-time Education, Master's Program
in Mediation and Alternative Dispute Resolution, Tashkent State University of
Law, Tashkent, Uzbekistan

Abstract:

This thesis analyzes the legal issues arising in the enforcement of mediated settlements. It explores obstacles to mandatory enforcement, the legal validity of mediation agreements, the powers of courts and enforcement agencies, and the



practical challenges they face. The study also examines both national and international institutional experiences and proposes institutional mechanisms tailored to the context of Uzbekistan.

Keywords: Mediation, mediated settlement, legal issues, enforcement, institutional mechanisms, court, enforcement agency.

ПРАВОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ВОЗНИКАЮЩИЕ ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ ИСПОЛНЕНИЯ МЕДИАТИВНОГО СОГЛАШЕНИЯ, И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ИХ УСТРАНЕНИЕ

Унгаров Акрам Ботиркулович

Студент магистратуры и факультета заочного обучения Ташкентского государственного юридического университета, направление «Медиация и альтернативные методы разрешения споров», Ташкент, Узбекистан

Аннотация:

В данной тезисной работе всесторонне анализируются правовые проблемы, возникающие при обеспечении исполнения медиативного соглашения. В частности, рассматриваются препятствия в процессе принудительного исполнения соглашений, правовая сила медиативного договора, полномочия суда и органов исполнения, а также их практические сложности. Кроме того, изучен опыт национальных и зарубежных институтов и предложены институциональные механизмы, адаптированные для условий Узбекистана.

Ключевые слова: Медиация, медиативное соглашение, правовые проблемы, исполнение, институциональные механизмы, суд, исполнительная служба.

Kirish

Mediatsiya an'anaviy sud ish yurituviga muqobil ravishda, nizolarni hal etishda samarali, fuqarolik munosabatlariga xos ravishda va insonparvar yondashuvni ta'minlovchi institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu mexanizm taraflar



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th July, 2025

o'rtasidagi o'zaro manfaatlarni hisobga olgan holda murosaga kelishi uchun qulay huquqiy muhit yaratadi. Shu bilan birga, mediatsiya jarayonida erishilgan kelishuvning majburiy tartibda ijro etilishi ta'minlanmasa, mazkur institutning amaliy qiymati va samaradorligi jiddiy ravishda shubha ostida qolishi mumkin. Aniqroq qilib aytganda, mediativ kelishuvda nazarda tutilgan shartlar ijro etilmasligi yoki ijro jarayoniga oid huquqiy to'siqlar mavjud bo'lishi, mediatsiyaning maqsad va vazifalarini to'laqonli amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Shu boisdan, mediativ kelishuvlarni ijro etishni ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish, mavjud huquqiy va amaliy muammolarni aniqlash hamda ushbu sohadagi institutsional tizimni takomillashtirish bugungi kunning muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Sudgacha bo'lgan tartibda tuziladigan mediativ kelishuv uning taraflarining huquq va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan fuqarolik-huquqiy bitim xususiyatlariga egaligi bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Notariat to'g'risida"gi Qonunning 61¹-moddasiga ko'ra notarius taraflar mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish natijalaridan kelib chiqadigan nizoni yoxud majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari xususida o'zaro maqbul qarorga erishgan taqdirda, taraflar o'rtasida tuzilgan mediativ kelishuvni tasdiqlaydi.

Notarial tasdiqlangan bitimlar subyektiv huquqlarning vujudga kelganligini tasdiqlaydi. U manfaatdor tomonga o'z huquqini isbotlashni osonlashtiradi. Chunki notarius tomonidan rasman rasmiylashtirilgan bitimning mazmuni, amalga oshirilgan vaqti va joyi, bitim sub'ekting niyatlari va boshqa holatlar ommaviy tan olingan va ishonchli deb hisoblanadi¹.

Germaniya Federativ Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 794-paragrafiga ko'ra qarzidor shartnomada o'z xohishi bilan mediativ kelishuvni ijro qilishga rozilik bildirgan holatlarda notarius tomonidan tasdiqlangan mediativ kelishuvni majburiy ijro hujjati sifatida e'tirof etiladi². Ya'ni, sud qarorisiz ham ijro amaliyotini boshlash mumkin. Fransiyada mediativ kelishuvini acte authentique shaklida notarius

¹Ралько В.В., Репин Н.В., Дударев А.В., Фомин В.А. Нотариат: Учебник. М., 2016; СПС «КонсультантПлюс».

²Zivilprozessordnung. Bundesrepublik Deutschland. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/zpo/_794.html (murojaat qilingan sana: 18.07.2025).



tomonidan tasdiqlash uni mustaqil ijro hujjatiga aylanishiga zamin yaratadi. Bu — notariusning rolini yanada kengaytirish va ijro etish uchun ishonchli mexanizmdir. *Acte authentique* — bu notarius tomonidan rasman tuzilgan va yuridik ta'sirga ega bo'lib u sud qarori kabi amal qiladi. Ushbu hujjat asosida ijro talabnomasi maxsus ijro byurosi yoki davlat (xususiy) ijrochilar orqali amalga oshiriladi³. Italiyada mediativ kelishuv notarius tomonidan tasdiqlangan bo'lsa, u "titolo esecutivo" — ya'ni ijro hujjati sifatida qabul qilinadi. Bu hujjat asosida ijro byurosi yoki sudsiz ijro amaliyotlari amalga oshirilishi mumkin⁴. Fransiya, Germaniya va Italiya qonunchiligida mediativ kelishuvlarning ijrosini ta'minlash mexanizmi qat'iy huquqiy asoslarga ega. Xususan, ushbu mamlakatlarda mediativ kelishuvlar notarius yoki sud tomonidan rasmiylashtirilgan taqdirda, ularni ijro hujjati sifatida tan olish amaliyoti mavjud. Bu esa, mediativ kelishuvlarning ijrosini faqat sud orqali emas, balki notarial tasdiq asosida, shuningdek maxsus ijro organlari orqali sudsiz amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

V.Yarkov va V.Medvedevlar ta'kidlaganlaridek, mediator ishtirokida tuzilgan kelishuvning huquqiy tabiatini o'zgartirmasdan, uning notarius tomonidan tasdiqlanishi mediativ kelishuvni amalga oshirishning samarali va aniq huquqiy mexanizmlarini yaratishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv, ya'ni mediativ kelishuvni notarial tartibda rasmiylashtirish, uning huquqiy kuchini mustahkamlab, ijro etilishini kafolatlash imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur huquqiy shakl mediativ kelishuv taraflari uchun qandaydir majburiylik yoki cheklov yuklamaydi, aksincha, ularning huquqiy himoya darajasini oshiradi va kelishuv shartlarining amaliy bajarilishiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi⁵.

O'zbekiston Respublikasi "Notariat to'g'risida"gi Qonunda taraflar tomonidan tuzilgan va notarius tomonidan tasdiqlangan mediativ kelishuvning ijro hujjati kuchiga ega ekanligi, shunga muvofiq uning "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasida keltirib o'tilgan ijro etilishi lozim bo'lgan sud hujjatlari va boshqa organlarning hujjatlari ro'yxatida mavjud emasligi uni ijro etishning huquqiy

³ [https://www.notaires.fr/fr/\(murojaat qilingan sana: 18.07.2025\)](https://www.notaires.fr/fr/(murojaat%20qilingan%20sana%3A%2018.07.2025)).

⁴ Codice di Procedura Civile. Art. 474. Repubblica Italiana. URL: <https://www.brocardi.it/codice-di-procedura-civile/libro-terzo/titolo-i/capo-i/art474.html> (murojaat qilingan sana: 18.07.2025).

⁵ В. Яркоу, В. Медведев. Нотариат ва медиация // *Нотариус ахборотномаси*. — 2021. — №9. — Б. 13.



mexanizmini ishlab chiqishdagi ba'zi bir bo'shliqlarning mavjudligidan dalolat beradi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan davlatlar tajribasini O'zbekiston milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish, mediatsiya tartib-taomili natijasida tuzilgan mediativ kelishuvlarning huquqiy ahamiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday yechim mediativ kelishuvni amalga oshirishda ishonchlilikni oshiradi hamda taraflarni nizolarni sudgacha yetkazmasdan, mediatsiya yo'li bilan hal etishga rag'batlantiradi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish, sudgacha bo'lgan tartibda nizo taraflari tomonidan erishilgan mediativ kelishuvning ijro etilishi bilan bog'liq vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Notariat to'g'risida"gi hamda Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga quyidagi o'zgartirishlarni kiritilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

"Notariat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni

61¹-modda. Mediator vazifasini bajarish

.....

Taraflar mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish natijalaridan kelib chiqadigan nizoni yoxud majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari xususida o'zaro maqbul qarorga erishgan taqdirda, notarius taraflar o'rtasida tuzilgan mediativ kelishuvni tasdiqlaydi va **ushbu kelishuv majburiy ijro etish uchun taqdim qilinadigan ijro xatiga tenglashtiriladi.**

"Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni

Ijro etilishi lozim bo'lgan sud hujjatlari va boshqa organlarning hujjatlari

Ushbu Qonunda belgilangan qoidalarga binoan quyidagilar ijro etilishi lozim:

.....

4¹) notarial tarzda tasdiqlangan taraflar o'rtasida tuzilgan mediativ kelishuvlar;

Ushbu taklifning mohiyati sudga murojaat qilmasdan tuzilgan mediativ kelishuvni notarial tartibda tasdiqlab, undan keyingina ijro etish uchun taqdim etish talabini



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th July, 2025

qonunchilikda belgilashdan iborat. Mazkur holatda notarial tasdiqlangan mediativ kelishuv ijro varaqasiga teng kuchga ega bo'ladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, mediativ kelishuv taraflar uchun majburiy xususiyatga ega bo'lib, u ular tomonidan ixtiyoriy ravishda, kelishuvda belgilangan tartib va muddatlarda bajarilishi lozim. Biroq, mazkur kelishuv shartlarining ijro etilmasligi taraflarning o'z huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish imkoniyatini istisno etmaydi.

Mediativ kelishuv tuzilgan taqdirda, taraflar muayyan majburiyatlarni bajarish haqida kelishgan bo'lsalar-da, uning bajarilishi huquqiy oqibat keltirib chiqarmasligi, amalda, kelishuv shartlari bajarilmaganida taraflar qayta sudga murojaat etishi mumkinligini anglatadi. Bu holat "Iqtisodiy protsessual kodeks"ning 107 va 109-moddalarida o'z aksini topgan. Unga ko'ra, agar mediativ kelishuv tuzilgan bo'lsa, da'vo arizasi ko'rib chiqilmasdan qoldirilishi mumkin, ammo da'vogar ushbu asos bilan umumiy tartibda sudga yangidan murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, mediativ kelishuv orqali tomonlar o'rtasida fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida mulkiy majburiyatlar vujudga keltirilgan bo'lsa, bunday kelishuv o'z tabiatiga ko'ra huquqiy oqibatlarga ega bo'lib, u ijro etilmasa, mos ravishda huquqiy himoya mexanizmlari orqali amalga oshirilishi kerak. Bunday holatda mediativ kelishuvdan kelib chiquvchi majburiyatlar fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan huquqiy himoya vositalari orqali kafolatlanishi lozim.

Ammo amalda, mediativ kelishuv ijrosini ta'minlash uchun zarur bo'lgan huquqiy mexanizmlar O'zbekiston qonunchiligida to'liq ishlab chiqilmagan. Xususan, ushbu kelishuvning ijro hujjati sifatida tan olinishi, uning to'g'ridan-to'g'ri majburiy ijro jarayoniga qo'yilishi borasida huquqiy asoslar yetarli darajada emas. Natijada, mediativ kelishuvning majburiy ijro etilishi ta'minlanmagan sababli, mediatsiya institutining samaradorligiga nisbatan ishonch susayishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro tajriba, jumladan, **Singapur konvensiyasi** (2019) qoidalarini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur Konvensiyaning 3-moddasida qayd etilganidek, har bir ishtirokchi davlat mediativ kelishuvlarni o'zining ichki protsessual qoidalari va Konvensiyada belgilangan shartlarga



muvofoiq ravishda ijroga yo'naltiradi. Shu bilan birga, Konvensiya mediativ kelishuvning amalga oshirilishi uchun uni o'tkazish to'g'risidagi alohida kelishuv yoki vositachilik markazining aralashuvini talab etmaydi⁶.

Boshqacha aytganda, mediatsiya jarayonida taraflar o'rtasida kelishuvga erishilgan taqdirda, uning ijrosi Singapur konvensiyasi asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu holat, masalan, hakamlik qarorlari uchun zarur bo'lgan kelishuv shartlariga qaraganda ancha soddalashtirilgan bo'lib, mediativ kelishuvlarni xalqaro miqyosda ijro etish imkoniyatini yaratadi. O'zbekistonda mediatsiya tartib-taomili natijasida tuzilgan mediativ kelishuvlarni ijro etish masalalari bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan:

1. **2018 yil 5 iyulda qabul qilingan "Mediatsiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.** Ushbu qonun mediatsiya jarayonini tashkil etish va o'tkazishning huquqiy asoslarini belgilab, taraflar o'rtasida erishilgan mediativ kelishuvning huquqiy tabiati va amalga oshirilishini belgilovchi umumiy normalarni o'z ichiga oladi. Qonunga ko'ra, mediativ kelishuv taraflar uchun majburiy hisoblanadi va belgilangan tartibda bajarilishi lozim.

2. **O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (FPK) va Iqtisodiy protsessual kodeksi (IPK).** Mazkur kodekslarda sud tomonidan tuzilgan kelishuv bitimlari va mediativ kelishuvlarning tasdiqlanishi, ularning huquqiy oqibatlar va ijrosi bo'yicha normalar belgilangan (FPK 101-modda, IPK 107 va 109-moddalar). Shu bilan birga, mediativ kelishuv bajarilmagan taqdirda taraflar umumiy tartibda sudga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan.

3. **1958 yildagi "Xalqaro arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risida"gi Nyu-York konvensiyasi.** Ushbu konvensiya bevosita mediatsiyaga taalluqli bo'lmagan bo'lsa-da, unda ko'rsatilgan normalar xalqaro xususiy huquq sohasida tuzilgan kelishuvlarning ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayrim hollarda mediativ kelishuvlar arbitraj qarorlari bilan bir qatorda ijro hujjati sifatida tan olinishi mumkin. O'zbekiston mazkur Konvensiyaga 1996 yilda qo'shilgan va uning normalari milliy qonunchilikka mos keladi.

⁶ Xalqaro tijorat mediasiyasi natijasida tuzilgan kelishuvlarni ijro etish to'g'risidagi Konvensiya (*Singapore Convention on Mediation*), 2019 yil 7 avgust, 3-modda. URL: <https://www.singaporeconvention.org> (Murojaat qilingan sana: 22.06.2025).



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.F. Otaxonov. Nizolarni muqobil hal qilish. To'plam. Toshkent 2022 y.
- 2.U. Tadjixanov. A.Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik. IIV Akademiyasi. 1998 yil.
3. Ралько В.В., Репин Н.В., Дударев А.В., Фомин В.А. Нотариат: Учебник. М., 2016; СПС «КонсультантПлюс».
4. Nurmamatov Nurbek O'rinboy o'g'li. Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati - Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor – 2022. Maqola – 3 bet.
5. R.Sh. Ismoilova. Modern Journal of Internatsional Law – 2023. Maqola – 3-4 betlar
6. A.A.Xakberdiyev, M.M.Mamasiddiqov. Nizolarni muqobil hal etish usullari – Toshkent 2025. Darslik – 64 bet.
7. Yu.f.d.,professor. I.Rustambekov. Mediatsiya – mediatorlar uchun qo'llanma – Toshkent 2024. Qo'llanma – 25-48 betlar.
9. Zivilprozessordnung. Bundesrepublik Deutschland. URL.
10. В. Ярков, В. Медведев. Нотариат ва медиация // Нотариус ахборотномаси. – 2021. – №9. – Б. 13.

INTERNET SAYTLARI

1. <https://www.lex.uz/>
2. <https://www.norma.uz/>
3. <https://www.adolat.net/>
4. <https://.cyberleninka.ru/>
5. <https://www.singaporeconvention.org>
6. https://www.gesetze-im-internet.de/zpo/___794.html